

EGAMBERGANOV Boburbek Atabek o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Dinshunoslik" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Email: boburbek.dinshunoslikfaoliyati@gmail.com

XUDOYBERGANOVA Gulnora Nasirovna

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,

"Dinshunoslik va jahon dinlarini

qiyosiy o'rganish UNESCO" kafedrasi dots.v.b., PhD

Email: gulnora2801@mail.ru

YAHUDIY JAMOALARINING ETNIK BO'LINISHI: SEFARDLAR, ASHKENAZLAR, MIZRAHLAR VA BUXORO YAHUDIYLAR

ЭТНИЧЕСКОЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ЕВРЕЙСКИХ ОБЩИН: СЕПАРДЫ, АШКЕНАЗЫ, МИЗРА И БУХАРСКИЕ ЕВРЕИ

ETHNIC DIVISION OF THE JEWISH COMMUNITIES: SEPARDIANS, ASHKENAZIS, MIZRAH AND BUKHARA JEWS

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda mavjud yahudiy jamoalarining o'ziga xos jihatlari va ularning etno-madaniy xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, ashkenaz, sefard va mizraxim yahudiy jamoalarining skahkllanishi, tarixiy va etnik kelib chiqish omillari keltirib o'tilgan. Shu bilan birga Sharqiy hududlarda yuzaga kelgan jamoalardan biri sifatida – buxoro yahudiylarining ba'zi tasnifiy jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yahudiy jamoalari, yahudiy diasporalari, ashkenazlar, sefardlar, mizraxim, "arablashgan yahudiylar", buxoro yahudiylari.

Аннотация: В статье представлена информация об особенностях еврейских общин и их этнокультурных особенностях. В частности, упоминаются формирование еврейских общин ашкенази, сефардов и мизрахи, исторические и этнические факторы происхождения. При этом рассмотрены некоторые классификационные аспекты бухарских евреев, как одной из общин, возникших в восточных регионах.

Ключевые слова: еврейские общины, еврейские диаспоры, ашкенази, сефарды, мизрахимы, «арабизированные евреи», бухарские евреи.

Abstract: The article provides information about the specific aspects of Jewish communities and their ethno-cultural characteristics. In particular, the formation of Ashkenazi, Sephardic and Mizrahi Jewish communities, historical and ethnic origin factors are mentioned. At the same time, some classification aspects of the Bukhara Jews, as one of the communities that arose in the Eastern regions, were considered.

Key words: Jewish communities, Jewish diasporas, Ashkenazis, Sephardim, Mizrahim, "Arabized Jews", Bukhara Jews.

KIRISH

Yahudiylarning etnik millat sifatida rivojlanishining ba'zi tarixiy bosqichlarini yuqoridagi boblarda batafsil ko'rib chiqishga harakat qildik. Ularning keyinchalik dunyo bo'ylab migratsiya qilishi va tarqalib ketishi ham bir qancha omillarga ko'ra sodir bo'lgan. Masalan, er. avv. VIII asrda Yahudiya qirolligi qulaydi. Ilk bor ularning boshqa hududlarga ko'chishi ham aynan shu davrga to'g'ri keladi. Undan keyin esa, er. avv. VI asrda Bobil qirolligi (Buxtunnasr I) tomonidan yahudiy yerlari bosib olinib, aholining katta qismi asir sifatida olinib Bobilga surgun qilinadi. Surgun qilingan yahudiylar Bobilda tarqoq holda ko'paygan holda istiqomat qilishgan. Keyinchalik ohirgi marta ellinizm davrida ham ularning katta qismi boshqa hududlarga migratsiya qilib, dunyo bo'ylab tarqala boshlashgan [1:79]. Lekin eng e'tiborli jihati, yahudiylar keyinchalik eng katta surgunga uchrashadi. Milodiy I-II asrlarda yahudiylarning Rimliklarga qarshi isyonlari va ular o'rtasidagi kelishmovchiliklar sababli Birinchi yahudiy urushi, Ikkinchi yahudiy urushi va ohirida Bar-kohba qo'zg'olonini boshidan o'tkazishadi. Shundan so'ng rimliklar yahudiy yerlarini vayron qilishib aholini barchasini o'z yerlaridan surgun qilishadi. Yaxlit millat va xalq o'laroq yashab kelayotgan yahudiylar shu darajalik bo'linib ketadiki, oldin ularning har biri qaysi qabila (yoki urug'dan) ekanini bilib yashashgan bo'lsa, surgun etilib bo'lib tashlangandan so'ng ular bir-biriga aralashib ketadi. Natijada, ular qabila-qabila bo'lib yashash ijtimoiy tuzumini qo'ldan boy beradilar. Endilikda ularning yahudiy ekanini bildirib turish belgisi sifatida o'sha migratsiya qilgan hududining nomi qo'llanadigan bo'ladi. Shundan boshlab ilk – yahudiy diasporalari yuzaga keladi. Ya'ni, ularning etnik mansubligi yahudiy bo'lib, ammo o'zlarining muqim vatani bo'lmagani uchun ko'chib borgan

hududiga ko'ra nomlana boshlaydi. Masalan, tatar yahudiylari, Buxoro yahudiylari, Qrim yahudiylari va h.k.

ASOSIY QISM

Yahudiylar o'zlarining o'rnatilgan hududiga qarab alohida katta jamoani tashkil qila boshlashadi. Jumladan, Yevropaga migratsiya qilib o'sha yerda o'troqlashgan yahudiylar – ashkenaz yahudiylari, Yaqin Sharq hududlariga ko'chganlari - mizraxim yahudiylari, janubi-g'arbiy Yevropada vujudga kelganlari esa, sefard yahudiylaridan iborat jamoalarni yuzaga keltirishgan.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, yahudiylar diasporasi – garchi tarix davomida bir-qancha genetik uzilishga duch kelgan bo'lsada, ular dunyodagi o'zining tarixdan to hozirgacha bo'lgan etnik zanjirini uzmasdan saqlab kelayotgan millat vakillari hisoblanishadi. Ya'ni, ularning etnik mansubligi shu darajalik asosli-ki, tarix davomida sodir bo'lgan olamshumul voqea-hodisalar va ular ustida ro'y bergan bir-qancha qirg'inlar ham yahudiylarni butkul ilk ajdodlarining qonidan uza olmagan. Bu degani, ular og'ir va qiyin sharoitda ham o'zlarining naslini ko'paytirish kabi demogarfik ahamiyatga ega omilni qo'ldan boy berishmagan. Shuning uchun ham yahudiylar qadimgi tarixdan mavjud bo'lgan va hozirgacha (tarqoq bo'lsada) mavjud bo'lib kelayotgan etnik-millat hisoblanadi.

Hozirgacha o'zining ko'pchilik vakillariga ega bo'lgan ashkenaz, sefard va mizraxim yahudiylari kabi jamoalar katta ahamiyatga ega.

Ashkenaz yahudiylari jamoasi - (ibr. "ashkenazim") o'rta asrlarda Germaniya, Fransiya, Angliya va G'arbiy Yevropa kabi hududlarda yashagan yahudiylarning nasliy jihatdan avlodlari bo'lib, keyinchalik ular dunyoning boshqa nuqtalariga yoyilib katta denominatsiyani tashkil qilishgan.

Ashkenazlarning to'liq etnik yahudiy millati va isroillikga mansub ekanligi ilmiy isbotlangan [2:26].

Ashkenaz atamasi, asli ibroniy tildagi "ashkenazim" so'zidan olingan bo'lib, yahudiylar tomonidan Germaniyaga nisbatan shu nom berilgandi. Chunki, Tavrotda keltirilishicha, Nuhning o'g'li Yofasning nevarasini ismi Ashkenaz bo'lib, u aynan shu Germaniya hududlarida naslini davom ettirgan (Ibtido 10:3 va Hulin Talmudining

sharhida shunday keltiriladi). O'rta asrlardagi yahudiy adabiyotlarida ham ashkenaz atamasi Reyn yaqinida yashovchi yahudiylarga nisbatan qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Keyinchalik esa, ashkenaz atamasi Germaniya hududida yashovchi barcha yahudiylarga nisbatan qo'llana boshlaydi.

Ashkenaz yahudiylarining tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, u mil. 70-yillarga borib taqaladi. O'sha paytdagi Rim imperatori Titus (Tit) Quddusni bosib oladi, ikkinchi Ma'badni vayron etib aholisini qirib tashlaydi. Aholining ba'zi qismi asir olinib, yana ba'zilari boshqa hududlarga qochishga erishadilar. Ammo, ushbu qirg'indan oldin ham yahudiylar o'z ixtiyori bilan turli hududlarga migratsiya qilishib, Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Shimoliy Afrika va Reyn bo'ylarida o'troqlashishni boshlashgandi. Keyinchalik, Quddusdagi yahudiylar qirg'inidan so'ng esa, yuqorida aytganimizdek, ko'plab yahudiylar turli joylarga, xususan, o'zlarining millatdoshlari qayerda o'troqlashgan bo'lsa ular ham o'sha yerga ko'chib ular orasida bir jamoa sifatida yashay boshlaydilar.

Keyinchalik XI asrda Germaniya va Fransiyaning shimoliy hududlari yahudiylar uchun Tavrotni o'rganish bo'yicha markazga aylanadi. Chunki, bu paytga kelib gaonlar davri (Bobil donishmandlari) tugab, keyingi rishonimlar davriga o'tiladi ("rishonim" atamasining ma'nosi "birinchilar" bo'lib, yahudiylik tarixda Talmudning ilk sharhlovchilariga nisbatan aytiladi). Ilk rishonim esa aynan Germaniyalik yahudiy – Rabeynu Gershom bo'ladi. Shundan so'ng Germaniyada, Tavrotni o'rganish va Talmudni sharhlash bo'yicha katta yahudiylar jamoalari paydo bo'ladi.

Buyuk Karlning davrida Mayns aholisi Italiyadan Buyuk Kalonimus (o'sha davrdagi yahudiylarning diniy yetakchisi va olimi)ni taklif qilishadi. Shundan keyin Germaniyada ilk Ieshiva ta'lim muassasalari yuzaga kelib, keyinchlik ularga Rabeynu Gershom rahbarlik qilgan. Oradan vaqt o'tib, ushbu Mayns va Vorms shaharlaridagi Ieshivalarda, Rabeynu Gershomning shogirdlaridan 1040-yilda Fransiya tug'ilgan Rashi (rabi Shlomo Ishaki) ham ta'lim oladi.

Rashi (rabi Shlomo Is'haki) - o'sha davrda TaNaX, Tavrot va Talmudga sharh yozgan katta olim bo'lib, u yahudiylarning diniy yetkachisi sifatida alohida hurmat qozongan.

XII-XIV asrlarda Rashining shogirdlari va kuyovlari (Meir bar Shmuel, rabi Yahuda ben Natan, Iakov ben Meir, Shmuel ben Meir) tomonidan “Tosafot” (“qo‘shimchalar”) tuzib chiqiladi. U Talmudning eng mashhur sharhlaridan biri bo‘lib, hozirgacha (Ieshivadagi o‘quvchi-talabalar uchun) Talmud sharhiga oid fundamental manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu sharhlar va yahudiylar adabiyotlari rishonim (Talmudning ilk sharhlovchilari) davrida tuzilgan bo‘lib, u XIV asrgacha davom etgan.

XIV asrga kelib ashkenaz yahudiylarining nemis-ibroniy tillari qorishmasidan tashkil topgan – idish tili yuzaga keladi. E’tiborli jihati, idish tili – bu yahudiylar millatining bir diasporasining o‘ziga xos bo‘lgan til bo‘lib, u keyinchalik boshqa yahudiylarning ham ona tiliga aylanib ketgan.

Ashkenaz yahudiylari o‘zlarining madaniy, diniy va etnik urf-odatlarini va an’analarni hech qayerda qayd etishmaydi, balki, barcha narsani keyingi avlodlarga og‘zaki tarzda yetkazishadi [4:150163].

Barcha yahudiy jamoalarida ibodat paytida duolar va zikrlar o‘qishga oida alohida qonun-qoidalar mavjud bo‘lib, unga – nusax (“nusxa”) deyiladi. Nusaxlar yahudiylar tarixining rivojlanishi davomida rabi (“ustoz”)lar tomonidan tuzib kelingan bo‘lib, keyinchalik turli yahudiy jamoalarining paydo bo‘lishi bilan nusaxlar ham farqli bo‘lib ketgan. Jumladan, ashkenaz yahudiylarida ham bu turkum duolarning – ashkenaz nusaxlari shakllangan. Ashkenaz yahudiylari undan kundalik hayotlari va sinagogalarda ibodat-duo qilishda foydalanishadi.

Bundan tashqari Galaxaga amal qilishda sefard yahudiylaridan farqli o‘laroq yondashib, ibodat va muomala masalalarida o‘zlarining mustaqil hukmlarini joriy etishgan. Bu hukmlar “Shulxan aruh” (yahudiylarning barcha jamoalari orasida birday qabul qilinuvchi, Tavrotdagi ahdlar va amaliy hukmlarni bajarishga oid umumiy yo‘riqnoma)da alohida keltirib o‘tilgan.

Hozirgi kunda ashkenazlar jamoasiga mansub yahudiylarning umumiy ko‘rsatkichi 65-75%ni tashkil qiladi. Olimlar tomonidan ashkenaz yahudiylarining genetik xususiyatlari, xususan, genomi o‘rganilganda va ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilganda ularning er. avv. 2000-700 yillardagi yahudiylarning avlodlari ekanliklari isbotlangan [5:383].

Sefard yahudiylari jamoasi - (ibr. “sfarad” yoki “sefarad”) tarixda Rim imperiyasi mustamlakasida bo‘lgan hozirgi kundagi Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Janubiy Yevropa va Shimoliy Afrika hududlaridan chiqqan yahudiylarning sub-etnik guruhi bo‘lib, ba’zi ma’lumotlarga qaraganda ular islom xalifaligi muhitida rivojlanib kelishgan. “Sfarad” yoki “sefarad” atamasi ham asli ibroniy tildan olingan bo‘lib, Ispaniyaning X-XIV asrlardagi yahudiylar orasidagi nomlanishi bo‘lgan. Shuning uchun ham mazkur jamoa vakillariga Ispan yahudiylari ham deyiladi.

Ikkinchi ma’bad davrida ko‘plab yahudiylar savdo-sotiq ishlari bilan jahonning turli burchaklariga migratsiya qilishgan. Shulardan ba’zilari, Ispaniya va uning yaqinidagi hududlarda o‘rnatilib qolishadi. Hududlarning ularga ijobiy ta’siri va hayot kechirishdagi qulayliklar sababli ular o‘sha yerda muqim istiqomat qilishga o‘tadilar. Ko‘p vaqtlar o‘tib, Aragon va Kastiliyada paydo bo‘lgan xristian inkvizitsiyasi siyosati oqibatida katta qo‘shinlar Andalusiya xalifaligidan qolgan Granada shahrini qamal qiladi.

Bosqinchilar shaharni qamal qilib, aholini majburan xristianlikka kiritishardi. O‘z ixtiyori bilan xristianlikni qabul qilgan musulmon yoki yahudiylarga – “anusim” deyilgan. Dinni yangi qabul qilgan anusimlar doimiy kuzatuv ostida bo‘lishib, agar yana o‘zining avvalgi e’tiqodiga xos ishlarni qilishsa yoki qaytsa tiriklay yoqib yuborilgan. Xristianlikni qabul qilmagan boshqa aholi esa, ommaviy qatl etilgan yoki ular ham yoqib yuborilgan.

Keyinchalik 1480-yilda Sevilya (Ishbiliya) shahrida ilk inkvizitorlik sudi bo‘lib o‘tadi.

1492-yilda Granadada yahudiy aholisiga oid qaror e’lon qilinadi, unga ko‘ra yahudiylar to’rt oy ichida xristianlikni qabul qilishlari yoki bo‘lmasa hududni tark etishlari kerak bo‘ladi. Shundan so‘ng, 1492-yilning 2-avgustida fuqarolar kabi istiqomat qilgan yahudiylarning 200 minggi Ispaniyani tark etishib, qochqinlar sifatida boshqa hududlarga ko‘chishadi.

XIV asrga kelib yahudiylar Usmonli turklar xalifalida istiqomat qilishadi. Ularga ijtimoiy-siyosiy hayotlarida ko‘plab imkoniyatlarning berilishi ortidan Bolqon va Kichik Osiyo hududlaridan romaniot-yahudiylari ham ko‘chib kelishadi va sefardlarga qo‘shilib ketishadi. Xalifalik davrida yashagan sefard yahudiylari

mol-mulk jihatidan ancha boy bo'lib, savdo-sotiq va ilm-fanda doimiy oldinga yura boshlaydilar. Buning oqibatida xalifalikda ham ularga nisbatan alohida e'tibor va lavozimlar joriy etiladi.

Sefard yahudiylari, boshqa yahudiy jamoalaridan farqli o'laroq ispan-ibroniy tillari qorishmasidan iborat bo'lgan "ladino" tilida muloqot qilishadi. Bu huddi ashkenazlardagi idish tili bilan parallel holda shakllanib kelgan.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab 1,5-2 mlnga yaqin sefard yahudiy jamoasiga mansub aholi mavjud bo'lib, ularning katta ko'pchiligi Isroilda (700 ming kishi), Fransiyada (350 ming kishi) va AQSHda (70 ming kishi) istiqomat qilishadi.

Sefard va ashkenaz yahudiy jamoalari o'rtasida ko'pincha ibodat va amaliy hukmlarda farqlar bor, xolos. Bundan tashqari, yuqorida keltirib o'tilganiday tarixiy rivojlanish omili bilan farqli madaniy xususiyatlarga ega.

Bundan tashqari, yahudiylarning bugungi kundagi sub-etnik guruhlar va diasporasining ichida mizraxim yahudiylari ham o'zlarining demografik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi.

Mizraxim - (ibr. "edot ha mizrah") Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududlaridan tarqalgan yahudiylar jamoasi bo'lib, ularga nisbatan "arablashgan yahudiylar" istilohi ham qo'llanadi.

"Mizrax" atamasi asli TaNaX kitoblarida keltirilgan bo'lib "Sharq" degan ma'noni, "mizraxim" esa "sharqlik" deb tarjima qilinadi. Ushbu atama arab tilidagi "mashriq" ("Sharq") atamasi bilan ma'nodosh hisoblanadi.

Mizrax atamasi yahudiylarga nisbatan Isroil davlatchiligining qurilish asnosida yuzga kelgan bo'lib, undan oldin ushbu yahudiylar o'zlarini sefard yahudiylari deb atashgan. Chunki, ular diniy-e'tiqodiy jihatdan sefard yahudiylariga taqlid qilishadi. Bundan tashqari, ba'zi manbalarga ko'ra Ispaniyadan quvg'in qilingan yahudiylarning katta ko'pchiligi arab mamlakatlariga migratsiya qilib, o'sha yerlarda o'troqlashib qolishgan. Shunga ko'ra, mizraxim yahudiylari deyilganda, asosan yaman, misr, livan, suriya, arab, fors, buxoro, hind va qurd yahudiylari nazarda tutiladi [5:5-20]. Iroq, Tunis va fors yahudiylari ham aslida mizraxim jamoasidan bo'lsada, ular bu atamani o'zlari amalda qo'llashmay geografik hudud nomi bilan o'zlarini atashadi.

Ba'zi yahudiy tarixchilari, ilk yahudiylarning arab mamlakatlariga kirib kelish davrlarini VI asr

deb ta'kidlashadi. Ularning yondashuviga ko'ra, Bobil surguni paytida yahudiylarning aksariyati Misr hududlariga migratsiya qilishgan bo'lib, keyinchalik undan boshqa qo'shni hududlar (Marokash, Suriya, Livan, Tunis)ga ko'chishgan bo'lishlari mumkinligini tahmin qilishadi.

Arab mamlakatlarida istiqomat qiladigan mizraxim yahudiylarining ko'pchiligi arab tili (arab-ibroniy lahjasi)da muloqot qilishadi.

Hozirgi kunda mizraxim jamoasiga mansub yahudiylarning umumiy soni 4 mlnga yetgan bo'lib, ularning aksariyati Isroilda (3-3.2 mln) istiqomat qilishadi. Umuman olganda, Isroil davlatining 40% aholisini mizraxim yahudiylari tashkil qiladi.

Hozirda mizraxim yahudiylari Marokashda arab etnik-millati vakillari bilan bir xil huquqlardan foydalangan holda yashab kelishmoqda.

Buxoro yahudiylari – yahudiy diasporasining tarix davomida Buxoroda shakllanib kelgan va yashab kelayotgan jamoasi hisoblanadi. Ular asosan Rossiya imperiyasining ekspansiyasi davrida O'rta Osiyoning Qo'qon xonligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida istiqomat qilishgan bo'lib, tojik tiliga asoslangan buxoro-ibroniy lahjasida muloqot qilishgan.

Tarix davomida buxoro yahudiylarini "jugutlar" ("jahud", "johud", "yahud" kabi shakllari ham bor) deb ham atashgan. Ular haqidagi ilk ma'lumotlar, er. avv. 500-yillarga oid bo'lib, Ahamoniylar davriga to'g'ri keladi.

1700-yillarda Xiva xonligida yashovchi yahudiylar majburan islom diniga kirgiziladi. Shundan so'ng, 1800-1900 yillarga kelib ularning xorazmliklar va turkmanlar bilan nikohlanishlari oqibatida o'zbeklar tarkibiga birikib ketadilar.

1850-1873 yillarda Qo'qon xonligi tarkibida yashovchi yahudiylarga "tuzem yahudiylari", Buxoro amirligida yashovchilarga esa "buxoro yahudiylari" deyilgan.

Buxoro yahudiylarining katta shuhrat qozonishlari va alohida madaniyat kasb etishlarida quyidagi omillar ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin:

1. 1600-yillarda yashagan mashhur yahudiy shoiri Elish ben Shmuel Rag'iba Samarqandiy Buxoro va Samarqand hududida istiqomat qilgan bo'lib, o'z davrida 1680-yilda "Shahzoda va so'fiy" poemasini yozib qoldirgan. Ushbu poema keyinchalik, buxoro yahudiylari adabiyotining paydo bo'lishiga hizmat qilgan.

2. 1688-1755 yillarda shoir Yahudiy Yusuf ibn Is'hoq Buxoriyning ham nomi mashxur bo'lib, u ko'plab g'azal va muhammaslar bitgan. Bundan tashqari u tomonidan, Nizomiy Ganjaviy va Muhammad Hofiz Sheroziyning ijodlari buxoro yahudiylarining lahjasiga tarjima qilingan.

3. 1721-yillarda Xiva xonligi va Buxoro amirligida yashagan yahudiylarning aksariyati mato bo'yash va hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan.

4. Buxoro amirligi davrida yahudiylardan jiz'ya solig'i olingani uchun, ular ham boshqa fuqarolar kabi teng huquqlarga ega bo'lib kelishgan. Aksar davrlarda, yahudiylar aholi qatlamining boy tabaqasi sifatida taraqqiy etgan bo'lib, o'zlarining mahallalari va ibodat uylari (Sinagogalar)ni qurishgan.

XULOSA

1926-yillarda O'zbekiston hududida yashovchi yahudiylarning umumiy soni 20 ming kishi ekanligi keltirilib, shundan 19 611 tasi ashkenazlar jamoasiga mansubligi ko'rsatilgan. 1959-yilda esa esa, 94 344 yahudiy (qaroimlar, ashkenazlar, mizraxlar va gruzin yahudiylari) istiqomat qilgan bo'lib, shulardan 57 mingi – ashkenazlar jamoasidan bo'lishgan.

Eng katta ko'rsatkich esa, 1970-yilda qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston hududida 102 855 yahudiylar yashagani keltiriladi.

Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra esa, 1926-yillarda O'zbekiston hududida yashovchi yahudiylarning umumiy soni 20 ming kishi ekanligi keltirilib, shundan 19 611 tasi ashkenazlar jamoasiga mansubligi ko'rsatilgan. Ohirgi davrlarga kelib, Buxoro yahudiylariga mansub aholining katta qismi Toshkent, Samarqand, Andijon va Navoiy viloyatlari, Xatirchi, Shahrisabz, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida istiqomat qilishgan.

1991-yilda SSSR qulashi bilan buxoro yahudiylarining ko'pchiligi AQSH, Kanada, Avstriya, Germaniya va Isroil davlatlariga ko'chib ketishadi. Olimlarning tadqiqotiga ko'ra, hozirda buxoro yahudiylarining 180-255 mingi mavjud hisoblanadi. Shundan, 150 ming buxoro yahudiylari Isroil davlatida istiqomat qilishadi. Albatta, Buxoro yahudiylari sharqda shakllangan yagona jamoa emasdi. Ammo, mizraxim yahudiylari turiga

kiruvchi bu guruh boshqa jamoalardan farqli ravishda o'zining alohida muloqot tili, madaniyati va adabiyotiga ega bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тюменев А.И. Евреи в древности и в Средние века. – Крафт, 2003.
2. Harry Ostrer MD (2012). *Legacy: A Genetic History of the Jewish People*. Oxford University Press. – p. 26
3. Раймонд П. Шейндлин (1998). Краткая история еврейского народа: от легендарных времен до современной государственности. – Издательство Оксфордского университета. – С. 1
4. Frigyesi, Judit (September 2014). "Scholarship on East European Jewish Music after the Holocaust". *Hungarian Quarterly*. 54 (209): 150–163.
5. Испания // Еврейская энциклопедия Брокгауза и Ефрона. — СПб., 1908-1913.
6. Tony Nick Frudakis (19 July 2010). *Molecular Photofitting: Predicting Ancestry and Phenotype Using DNA*. Elsevier. – P. 383
7. Shohat, Ella (1999). "The Invention of the Mizrahi". *Journal of Palestine Studies*. 29 (1): 5–20.
8. Mazzig, Hen. "Op-Ed: No, Israel isn't a country of privileged and powerful white Europeans". *Los Angeles Times*.
9. «Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах». Глава I. Глава V.
10. Yochai Oppenheimer, "Mizrahi fiction as a minor literature", in Dario Miccoli eds., *Contemporary Sephardic and Mizrahi Literature: A Diaspora*, 2017.
11. Eyal, Gil (2006), "The "One Million Plan" and the Development of a Discourse about the Absorption of the Jews from Arab Countries", *The Disenchantment of the Orient: Expertise in Arab Affairs and the Israeli State*, Stanford University Press.
12. Lowenstein, Steven M.: *The Jewish Cultural Tapestry: International Jewish Folk Traditions*, p. 60. New York: Oxford University Press, 2000.